

**‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336.1:330.15(575.1)

ABDULAZIZOV SHUHRATJON BOTIRJON O‘G‘LI

**LOYIHALARNI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA
MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fanlari doktori (Doctor of philosophy) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD, dots.I.T.Jumaniyazov

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-BOB.	LOYIHALARNI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNI NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	11
1.1.	ESG tamoyillarining mazmun-mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	11
1.2.	Loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishni ilmiy nazariy asoslari.....	32
1.3.	Loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishni huquqiy asoslari.....	44
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	53
2-BOB.	LOYIHALARNI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH TAHLILI	55
2.1.	Tijorat banklari faoliyatida ESG strategiyasini amalga oshirish holati tahlili.....	55
2.2.	Real sektor korxonalarida ESG tahlili.....	81
2.3.	O'zbekistonda ESG tamoyillari asosidagi moliyaviy instrumentlardan foydalanish amaliyoti.....	93
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	115
3-BOB.	LOYIHALARNI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	117
3.1.	Loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	117
3.2.	O'zbekistonda ESG ekotizimini shakllantirish imkoniyatlari.....	127
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	139
	XULOSA.....	141
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	143

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi sharoitda barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish global iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur jarayonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG – Environmental, Social, and Governance) tamoyillarini investitsiya faoliyatiga integratsiya qilish xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda ESG tamoyillari asosida shakllantirilayotgan moliyaviy instrumentlar orqali investitsiyalarni jalb etish, shuningdek kapital oqimlarining yo‘nalishlarini qayta taqsimlash jarayoni jahon iqtisodiyotida barqaror tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bloomberg Intelligence ma’lumotlariga ko‘ra, ESG bilan bog‘liq fondlarda boshqariladigan aktivlarning xalqaro miqyosdagi umumiy hajmi 45 trillion AQSH dollarini tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun, 2016-yilda ushbu ko‘rsatkich 22,8 trillion AQSH dollariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yil oxiriga kelib ESG tamoyillari asosidagi investitsiyalar hajmi 50 trillion AQSH dollaridan oshishi kutilmoqda. Shu nuqtai nazardan, loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish nafaqat kapital bozoridagi shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashga, balki mamlakat iqtisodiyotida ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida loyihalarni ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish bo‘yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari va yirik investitsiya fondlari kapital jalb etishda ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv omillariga alohida e’tibor qaratmoqda. Ilmiy izlanishlarda yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar va ijtimoiy investitsiyalar orqali ESG moliyalashtirishning turli shakllari tahlil qilingan. Biroq, milliy qonunchilikka moslashuv, moliyaviy institutlar salohiyatini oshirish hamda rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish masalalari hali ham to‘liq yechim topmagan. Shu sababli, ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy